

INVESTITSIYAVIY KO‘CHMAS MULKLARNI HISOBDAN CHIQRISH VA SOTISH HISOBI

Axmedjonov Abdufato

SAMISI, “Buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti
iqtisodiyot fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Tadqiqot investitsiyaviy ko‘chmas mulklarni sotish, hisobdan chiqarish va likvidatsiya qilish jarayonlarining buxgalteriya hisobi tartibini, moliyaviy natijalarni aniqlash va soliq oqibatlarini yoritadi.

Kalit so‘zlar: hisobdan chiqarish, sotish hisobi, foyda/zarar, investitsiyaviy mulk, realizatsiya, moliyaviy natija.

Kirish. Investitsiyaviy ko‘chmas mulklarni sotish yoki hisobdan chiqarish korxonada moliyaviy faoliyatining muhim bosqichlaridan biridir. Ushbu jarayonda foyda yoki zarar hisoblanishi, soliq oqibatlari va buxgalteriya yozuvlarini to‘g‘ri rasmiylashtirish katta ahamiyatga ega. Amaliyotda sotish operatsiyalarini hisobga olishda ko‘plab xatolar uchraydi, bu esa moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini pasaytiradi.

Yuqoridagi standart qoidasiga tayanadigan bo‘lsak, 550 500,0 ming kelgusida amalga oshirilganligi bois u adolatli qiymatni hisoblashda inobatga olinmaydi. Hozirgi kunda uning bozor qiymati 3 450 500,0 ming so‘m bo‘lganligi bois, adolatli qiymati ham shu summada aks ettiriladi.

Agarda takomillashuvi uchun kapital xarajatlar amalga oshirilsa, IKMning boshlang‘ich qiymati 4 001 000,0 ming so‘m ($3\,450\,500,0 + 550\,500,0$) bo‘ladi. IKM kapital xarajatlar hisobidan takomillashuvi amalga oshgandan so‘ng uning adolatli qiymatda aks ettirish qabul qilsa, u holda binoning adolatli qiymati 4 250 100,0 ming so‘m bo‘ladi. Qiymatning o‘sishi natijasida olingan daromad 249 100,0 ming so‘mni ($4\,250\,100,0 - 4\,001\,000$) tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha, ko‘chmas mulkni qayta baholash natijasida qiymatning kamayishi – bu mulk qayta baholanganda oldingi balans qiymatiga nisbatan narxining

tushirilishi hisobidan ko‘rilgan zarar summasi hisoblanadi. Qiymatning kamayishi natijasida ko‘rilgan zarar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chmas mulkning qiymatining kamayishiga hamda foyda va zararlarda o‘z aksini topadi.

Ko‘chmas mulkning qadrsizlanishidan zarar yuzaga kelganda esa uning balans summasi bozorda qoplanilishi mumkin bo‘lgan summadan salmoqli katta bo‘lganda tan olinadi. Qadrsizlanishdan zarar joriy davrning foyda va zararlarga olib boriladi va jamg‘arilgan qadrsizlanishdan zarar schyotida jamg‘ariladi. Shuning uchun qadrsizlanishdan zarar to‘g‘ridan-to‘g‘ri IKMning balans qiymatini kamaytirishga olib borilmaydi. Tashkilot boshlang‘ich qiymat modelida hisobga olish tartibini tanlagan bo‘lsa, IKMning boshlang‘ich qiymati jamg‘arilgan amortizasiya va jamg‘arilgan qadrsizlanishdan zarar summasini chegirish orqali topiladi.

Ko‘chmas mulklarning qadrsizlanishi qanday hollarda tan olinadi. Saturn metall MChJ korxonasi IKM bo‘lgan binoning balans qiymati 3 400 650,0 ming so‘mni tashkil etadi. Binoni IKM sifatida tutib turish davom ettiriladi. Baholash bo‘yicha mutaxassislarning xulosasiga ko‘ra binoning qismlari noqo‘lay qurilganligi, zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil qilib bo‘lmasligi va boshqa omillar hisob olinganda uni sotish natijasida 2 500 400,0 ming so‘m olish mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, bino sotish mumkin bo‘lgan qiymatga nisbatan oshirilgan qiymatda aks ettirilib kelinmoqda. Bu ma'lumotlar bozorga muvofiq emasligini anglatadi. Aktiv qadrsizlanishi holati yuz berdi. Standartlar talablariga muvofiq aktivning qadrsizlanishini tan olinishi talab etiladi.

Aktivlarning qadrsizlanishi bilan bog‘liq jarayonlarni aks ettiruvchi tushunchalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Adolatli (haqqoniy) qiymat bozor qatnashchilari o‘rtasida baholash sanasida odatdagi foaliyati davomida aktivlarni sotgan taqdirda olishi mumkin bo‘lgan yoki majburiyatlarni uzatgan hollarda to‘lanishi kerak bo‘lgan bahoni namoyon etadi (13-son BHXS).

Qadrsizlanishdan zarar – bu aktivning yoki pulni yuzaga keltiruvchi birlik (cash-generating unit)larning balans qiymatining uni qoplash summasidan katta bo‘lgan summasi.

Aktivlar yoki pulni yuzaga keltiruvchi birliklarning qoplanadigan summasi - bu quyidagi ikkita qiymatdan eng kattasidir: “sotish xarajatlari chegirilgandan keyingi adolatli qiymati” va aktivning “foydalanish qiymati”.

“Sotish xarajatlari chegirilgandan keyingi adolatli qiymati” yaxshi xabardor, ushbu bitimni amalga oshirishga xohishi bor tomonlar o‘rtasida tuzilgan bitim natijasida aktivlarni yoki pulni yuzaga keltiruvchi birlikning sotishdan tushishi mumkin bo‘lgan tushumdan sotish xarajatlari chegirib tashlangandan keyingi summa.

Standart qoidalariga ko‘ra aktivlarning qadrsizlanishiga tashqi va ichki omillar ta'sir ko‘rsatadi.

Tashqi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin bo‘ladi:

1. aktivlar bozor qiymatining salmoqli pasayishi;
2. salmoqli o‘zgarishlar (texnologiya, bozor, iqtisodiyot, qonunchilik);
3. aktivning foydalanish qiymatini hisoblashda qo‘llaniladigan diskont stavkasiga ta'sir ko‘rsatadigan foiz stavkalari va boshqa omillar;
4. kompaniyaning sof aktivlari balans qiymati uning bozor kapitalizasiyasidan oshib ketadi;

Ichki omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

5. aktivning eskirishi yoki jismoniy zarar va nuqsonlarga ega bo‘lishlik;
6. aktivni foydalanishda salmoqli o‘zgarishlar (aktivning turib qolishi, ishlab chiqarish faoliyati tugatish bo‘yicha rejalar, aktivning chiqib ketishi bo‘yicha rejalar, aktivning xizmat qilish muddatining qayta ko‘rib chiqilishi);
7. aktivni foydalanishdan olinadigan nafning kutilganidan ko‘ra salmoqli kamayishi;
8. aktiv qiymatining mumkin bo‘lgan kamayishiga boshqa ko‘rsatmalar (aktivdan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarning oshib ketishi, sof pul oqimlarining byudjetdagiga nisbatan salmoqli kamayishi va boshqa omillar).

Xulosa

Investitsiyaviy mulklarni sotish va hisobdan chiqarish jarayonida foyda/zararni to‘g‘ri hisoblash va soliq oqibatlarini baholashda muammolar mavjud.

Ushbu operatsiyalarni hisobga olish tartibini aniq belgilash va soliq qonunchiligini buxgalteriya hisobi bilan uyg'unlashtirish korxonalar moliyaviy natijalarini yanada ishonchli aks ettirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rajaboev Shahboz Shodiyevich, and Raxmatov Ozodbek Aktam O'g'li. "Information Technology Is Now Used Everywhere". *Miasto Przyszłości*, vol. 44, Jan. 2024, pp. 114-21, <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2372>.
2. Rajaboev, Shahboz Shodiyevich, and Abdunazar Burkhonovich Gaffarov. "ESSENCE OF DECISIONS ON MEASURES FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 120-125.
3. Ражабоев , Ш., и П. Хамидова. «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ». *Экономическое развитие и анализ*, т. 3, вып. 1, январь 2025 г., сс. 120-4, <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/65480>.
4. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz. "BUXGALTERIYADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 60.1 (2026): 84-91.
5. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz. "ONLINE ASSESSMENT SOFTWARE IN DISTANCE LEARNING: MY TEST AND ISPRING PROGRAMS AND THEIR APPLICATION." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 299-304.
6. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz, and SHomurodova Yasminabonu Ilkhomovna. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASIDAGI KORXONALAR RIVOJLANISHINI BOSHQARISH TIZIMI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 58.6 (2025): 7-13.
7. Sh, Rajaboyev Sh, and J. I. Xabibulloyev. "KOMPYUTER GRAFIKASI VA GRAFIK AMALLAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAGI O'RNI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 578-581.

8. Sh, Rajaboyev Sh. "KORXONALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARI BUXGALTERIYA HISOBINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 558-564.
9. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA SOHASIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARASI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 571-577.
10. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "RAQAMLI IQTISODIYOTDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI." *Экономика и социум* 4-1 (131) (2025): 449-453.